

PAPER

KICHIK SANOAT ZONALARI RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI

Farmonov Dilshodbek Daminovich^{1, *}

¹Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti magistri

*dilshodbekfarmonov0920@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada kichik sanoat zonalarining rivojlanishi va hozirgi holatining tahlili ko'rib chiqilgan. Unda kichik sanoat zonalarining iqtisodiyotdagi o'rni, hududiy ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi ahamiyati, yangi ish o'rinlarini yaratish va mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi roli ko'rib chiqilgan. Maqolada O'zbekistondagi kichik sanoat zonalarini misolida ularning joriy muammolari, rivojlanish dinamikasi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari tahlil qilingan. Maqola iqtisodiyot va sanoat sohasida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar, shuningdek, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga qiziquvchi tadbirkorlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Key words: kichik sanoat zonalarini, iqtisodiy rivojlanish, hududiy ishlab chiqarish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, investitsiya muhiti, infratuzilma rivojlanishi, davlat qo'llab-quvvatlovi, raqobatbardoshlik, ish o'rinlarini yaratish, mahalliy ishlab chiqarish.

Kirish

Kichik sanoat zonalarini O'zbekistonning hozirgi sharoitida shakllanish jarayonidan o'tirmoqda. Kichik sanoat zonalarining barpo etilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 31-dekabrda 378-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom qabul qilinganidan keyin boshlandi. Kichik sanoat zonalarini Prezident qarori yoki Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan barpo etiladi. Ushbu zonalar hududiy ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, kichik sanoat zonalarini rivojlantirish jarayonida infratuzilma va investitsiya muhitini yaxshilash kabi dolzarb masalalar paydo bo'lmoqda. Shu boisdan, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat zonalarini misolida ularning rivojlanish sur'ati va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Jahon amaliyotida xalqaro tashkilotlar tomonidan kichik sanoat zonalarini investitsiya faoliyati natijalarini baholash bo'yicha mezonlar ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu mezon talablari asosida kichik sanoat zonalarini taraqqiyotini boshqarish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yevropa Ittifoqi iqtisodchi-olimlari va ekspertlari "investitsiyalar iqtisodiy inqiroz davrida hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayishi yuz berganda iqtisodiy faoliyatni tiklashga eng katta hissa qo'shuvchi omil ekanligini, ushbu omil kichik sanoat zonalarini uchun ham birday ahamiyatli ekanligini ta'kidlamodalar". Bundan tashqari bir qancha xorijiy olimlarning asarlarida kichik biznes, kichik firmalar, shuningdek, kichik sanoat zonalariga turlicha ta'riflar keltirib o'tishgan. Jumladan, Grishin fikricha, sanoat sohasidagi kichik biznes-bu boshqa tarmoqlardagi kichik korxonalardan farqli ravishda yanada yuqori qo'shilgan qiymat ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan murakkab tizimdir. Ushakova sanoat biznesidagi kichik korxonalarining faoliyat sohasi ishlab chiqarish resurslariga nisbatan yuqori bo'lmagan ehtiyoj va kam sonli bo'lgan iste'molchilar uchun ko'p bo'lmagan miqdordagi mahsulotlarni ishlab chiqarish zaruriyatidan yuzaga kelganligini ta'kidlab o'tgan. O'z navbatida, Aleksandrova kichik sanoat

Table 1. Hududlar kesimida kichik sanoat zonalari soni

KSZ soni	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil (yanvar-sentabr)
Qoraqalpog'iston r.	7	7	11	11	14	15
Andijon	2	2	2	19	17	20
Buxoro	3	3	1	21	23	33
Jizzax	1	1	1	22	22	22
Qashqadaryo	5	6	8	17	27	32
Navoiy	-	1	1	7	14	13
Namangan	6	8	26	59	44	41
Samarqand	1	1	1	26	38	38
Surxondaryo	9	9	20	25	31	32
Sirdaryo	1	1	8	11	14	15
Toshkent	17	18	17	19	20	50
Farg'ona	2	11	9	62	37	61
Xorazm	1	1	1	10	19	24
Toshkent sh.	8	8	8	8	8	8
Jami:	63	77	114	317	328	404

tadbirkorligini sanoat ishlab chiqarish sektoridagi kichik korxonalarining foyda olishga yo'ltirilgan faoliyati sifatida ko'rsatib o'tgan. Jahon iqtisodiyotida munosib o'rin egallagan yirik ishlab chiqaruvchilar ham sanoat zonalari faoliyatini rivojlantirishga intilmoqda. Yirik sanoat vakillari hisoblangan Sembcorp Industries, Ascendas-Singbridge (Singapur) va Mitsubishi, Sojitz va Sumitomo (Yaponiya) kabi yirik ishlab chiqaruvchilar sanoat zonalariga investitsiya kiritish orqali o'z moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanishmoqda.

Natijalar

Mamlakatimizda ham so'ngi yillarda kichik sanoat zonalari rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda, shuningdek, 2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra respublikamizda jami 404 ta kichik sanoat zonalari faoliyat yuritib kelmoqda, ularning tarkibidagi korxonalar soni 3188 ta tashkil etadi (1-jadval). Eng ko'p kichik sanoat zonlari Farg'ona viloyatiga –61 ta, Toshkent viloyatiga –50 ta, Namangan viloyatiga –41 ta hamda Samarqand viloyatiga –38 ta to'g'ri keladi. Eng kam kichik sanoat zonalari: Toshkent shahrida –8 ta, Navoiy viloyatida –13 ta hamda Sirdaryo viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida –15 tadan kichik sanoat zonalari o'z faoliyatini yuritib kelmoqda. 2024-yil yanvar-sentabr oylarida kichik sanoat zonalari jami 8494 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan bo'lib, bularda Toshkent viloyati (3185 ta) hamda Farg'ona viloyati (2548 ta) yetakchilik qilgan. Qolgan hududlarda shu davr davomida yangi tashkil etilgan kichik sanoat zonalari kamroq ekanligi bois yangi ish o'rinlari soni ham yuqoridagi ikki hudud ko'rsatkichidan keskin farq qiladi.

Yuqoridagi jadvaldan (Table 1) ko'rinib turibdiki, so'ngi besh yillik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, 2023-yilda o'tgan yilga nisbatan juda ham kam miqdorda (3.47%) o'sish kuzatilgan bo'lib bu ko'rsatkichni 2020-yilda 22% ni tashkil etgan. Eng yuqori ko'rsatkich 2022-yilga to'g'ri kelgan bo'lib, u 178% ni tashkil etgan, 2021-yilda esa 48% ni tashkil etgan.

O'zbekistonda kichik sanoat zonalari samarali boshqarish biznes yuritish muhitini yaxshilash bilan birga tadbirkorlar manfaatdorligini ham oshirmoqda. Xususan, BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) tomonidan har yili e'lon qilinadigan "Raqobatbardosh sanoat unumdorligi" indeksining 2020 yilgi hisobotida mamlakatimiz ilk bor aks ettirilib, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 2-o'rinni egallagani qayd etildi. Hozirda "tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadida hududlarda yangi sanoat zonalari tashkil etish" muhim vazifa sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifani samarali amalga oshirish kichik sanoat

zonalari faoliyati natijadorligini yuksaltirish, ushbu faoliyatning tahlil mexanizmlarini takomillashtirish uning hududda iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashdagi o'rmini kuchaytirish hamda uni boshqarish samaradorligi darajasini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

Quyidagi jadvalda (Table 2) 2023-yilda kichik sanoat zonalari (KSZ) va barcha korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar ko'rsatkichlari taqdim etilgan. Ular orasidagi farqlarni hamda KSZlarning umumiy sanoat mahsulotlaridagi ulushini ko'rsatib o'tilgan. Bu sanoat tarmoqlari bo'yicha ishlab chiqarish samaradorligini va kichik sanoat zonalari iqtisodiyotdagi ahamiyatini tahlil qilish imkonini yaratadi. Kichik sanoat zonalari tomonidan 2023-yilda jami 9505,61 mlrd.so' mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, barcha sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan xuddi shu turdagi mahsulotlardagi ulushi 3,48%ni tashkil etgan, uning umumiy hajmi 272819,3 mlrd.so' m (2-jadval). Kichik sanoat zonalari 2023-yilda 551,32 mlrd.so' mlik kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqargan bo'lib, barcha korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan shu turdagi sanoat mahsulotlaridagi ulushi 13,12% miqdoriga teng. To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda KSZ ishlab chiqarish hajmi: 1492,38 mlrd, barcha korxonalar ishlab chiqarish hajmi 71509,8 mlrd.so' m ga teng hamda KSZning jami sanoat mahsulotidagi ulushi 2,09%. To'qimachilik mahsulotlari mamlakatdagi muhim sanoat tarmoqlaridan biri bo'lsa-da, KSZning ulushi pastroq, bu yirik korxonalarning yetakchiligidan dalolat beradi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda KSZ ishlab chiqarish hajmi: 1226,22 mlrd, barcha korxonalar ishlab chiqarish hajmi 65678,2 mlrd.so' m ga teng hamda KSZning jami sanoat mahsulotidagi ulushi 1,87%. Kiyim-kechak ishlab chiqarishda KSZ ishlab chiqarish hajmi: 1083,64 mlrd, barcha korxonalar ishlab chiqarish hajmi 23087,8 mlrd.so' m ga teng hamda KSZning jami sanoat mahsulotidagi ulushi 4,69%. Kiyim-kechak ishlab chiqarishda KSZ nisbatan kattaroq ulushga ega bo'lib, ushbu sohada KSZlar ham sezilarli rol o'ynayotganligini ko'rsatadi. Rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarishda KSZlarning ulushi o'rtacha darajada bo'lib, kichik sanoat zonalari ushbu tarmoqdagi faolligini ko'rsatmoqda. Ushbu sohada KSZ ishlab chiqarish hajmi: 636,88 mlrd, barcha korxonalar ishlab chiqarish hajmi 11056,2 mlrd.so' m ga teng hamda KSZning jami sanoat mahsulotidagi ulushi 5,76%. Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishda KSZ ishlab chiqarish hajmi: 399,24 mlrd, barcha korxonalar ishlab chiqarish hajmi 33838 mlrd.so' m ga teng hamda KSZning jami sanoat mahsulotidagi ulushi 1,18%. Kimyo sanoati yirik korxonalar tomonidan boshqarilayotganligi va kichik sanoat zonalari bu sohada cheklangan rol o'ynayotganligi seziladi. Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarishda KSZ ishlab chiqarish hajmi: 1235,73 mlrd, barcha korxonalar ishlab chiqarish hajmi 25082,2 mlrd.so' m ga teng hamda KSZning jami sanoat mah-

Table 2. Faoliyat turlari bo'yicha KSZ hamda barcha korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

Faoliyat turlari	2023-yilda KSZlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (mlrd.so'm)	2023-yilda barcha korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (KSZlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot turlari keltirilgan, mlrd.so'm)	KSZ tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning jami sanoat mahsulotlaridagi ulushi (foizda)
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1492,38	71509,8	2,09
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1226,22	65678,2	1,87
Kiyim ishlab chiqarish	1083,64	23087,8	4,69
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	836,10	11056,2	7,56
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	551,32	4208,3	13,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	399,24	3388	11,78
Boshqa metallarni mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	456,27	24860	1,84
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	1235,73	25082,2	4,93
Qo'rg'oshin va qo'rg'oshinsiz mahsulotlar ishlab chiqarish	425,48	5701,3	8,38
Jami:	9505,61	272819,3	3,48

Table 3. Kichik sanoat zonalarining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari

KSZ	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Soni:	63	77	114	317	328
Tarkibidagi korxonalar soni:	1317	1675	1869	2796	2494
Sanoat mahsulotlari hajmi: (mlrd so'm)	2516,5	2694,2	3964,4	6358,3	9505,6
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (mlrd so'm)	414,9	304,6	219,3	1663,6	1038,6
O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd so'm)	32	41,9	136,8	138,2	178,6
Xizmatlar eksporti hajmi (mlrd.so'm/AQSH dollari)	497,6 mlrd.so'm	717,5 mlrd.so'm	1000,3 mlrd.so'm	1273,7 mlrd.so'm	1929,1 mlrd.so'm
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar (-)) (mlrd so'm)	202,5	249,7	258	372,8	639,3
Hisobot davri oxirida debitor qarzdorlik (mlrd so'm)	351,8	534,1	696,8	1212,7	1760,3
Hisobot davri oxirida kreditor qarzdorlik (mlrd so'm)	728,3	918,3	1126,3	1302,4	2518,6

sulotidagi ulushi 4,93%. Bu tarmoqda ham KSZlarning ulushi o'rta darajada hisoblanadi. Qo'zg'oz mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik sanoat zonalarining (KSZ) ulushi nisbatan yuqoriroq bo'lib, bu sohada kichik va o'rta korxonalar samarali faoliyat olib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu tarmoqda texnologik jihatdan murakkab bo'lmagan, ammo turli xomashyo va qo'shimcha mahsulotlarga talab yuqori bo'lishi, kichik korxonalarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Bunda KSZ korxonalari mahalliy xomashyodan foydalanib, turli qog'oz mahsulotlari, masalan, o'ram qog'ozlari, daftarlik qog'ozlar, qadoqlash materiallari va boshqa maxsus mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali bozorga o'z hissasini qo'shmoqda. Shu bilan birga, kichik korxonalar yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirsa, ushbu tarmoqdagi ulushini yanada oshirishi mumkin. Bu sohada KSZ ishlab chiqarish hajmi: 475,28 mlrd, barcha korxonalar ishlab chiqarish hajmi 5701,3 mlrd.so'mga teng hamda KSZning jami sanoat mahsulotidagi ulushi 8,34%. KSZlar ayrim tarmoqlarda, xususan, kompyuter va elektron mahsulotlar, shuningdek qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega. Oziq-ovqat, kimyo va to'qimachilik kabi tarmoqlarda esa KSZlarning ulushi sezilarli darajada past bo'lib, bu sohalarda yirik korxonalar ustunlik qilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi jadvalda (Table 3) kichik sanoat zonalarining (KSZ) iqtisodiy rivojlanish dinamikasi yillar kesimda yoritilgan. Unda KSZlar sonining oshishi, tarkibida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar miqdori, eksport ko'rsatkichlari, foyda darajasi va moliyaviy majburiyatlar (debitor va kreditor qarzdorlik) kabi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar aks ettirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar kichik sanoat zonalarining iqtisodiyotdagi roli, ishlab chiqarish va investitsiya salohiyatining o'sishi hamda

tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari bo'yicha muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Shu bilan birga, ayrim ko'rsatkichlarda, masalan, investitsiyalar va moliyaviy majburiyatlarda o'zgaruvchanlik kuzatilib, bu kichik korxonalar faoliyatining barqarorligini ta'minlash uchun qo'shimcha tahlillar va choralar zarurligini ko'rsatadi. Kichik sanoat zonalar (KSZ) soni 2019-yildan 2023-yilgacha sezilarli darajada oshib, 63 tadan 328 tagacha yetgan (3-jadval). Bu o'sish kichik sanoat hududlariga qiziqishning ortib borayotganini ko'rsatadi. Korxonalar soni ham dastlab barqaror o'sib, 2022-yilda 2796 taga yetgan bo'lsa-da, 2023-yilda biroz qisqarib, 2494 taga kamaygan. Bu esa ba'zi korxonalar yopilishi yoki boshqa sabablar bilan faoliyatini to'xtatgan bo'lishi mumkinligini anglatadi. Korxonalar sonidagi o'zgarishlar sanoat mahsulotlari hajmi va umumiy iqtisodiy samaradorlikka ham ta'sir etgan bo'lishi mumkin.

Sanoat mahsulotlari hajmi esa yildan-yilga izchil o'sib borgan. 2019-yilda 2516,5 mlrd so'm bo'lgan ishlab chiqarish hajmi 2023-yilda 9505,6 mlrd so'mga yetgan. Ushbu o'sish iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish samaradorligining ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi ko'rsatkichlari nisbatan o'zgaruvchan bo'lib, 2022-yilda 1663,6 mlrd so'mlik maksimal darajaga chiqqan bo'lsa-da, 2023-yilda 1038,6 mlrd so'mga tushib ketgan. Investitsiyalarning bunday o'zgarishi korxonalar faoliyati va kelgusidagi o'sish salohiyatiga ta'sir qilishi mumkin.

Qurilish ishlari hajmi ham o'sish tendensiyasini ko'rsatib, 2019-yilda 32 mlrd so'mdan 2023-yilda 178,6 mlrd so'mgacha oshgan. Bu sanoat zonalaridagi infratuzilmaning rivojlanib borayotganini bildiradi. Shu bilan birga, xizmatlar eksporti ko'rsatkichlari ham izchil oshib, 2019-yildagi 497,6 mlrd so'mdan 2023-yilda 1929,1 mlrd so'mga yetgan. Bu KSZlarning xalqaro bozorda o'z pozitsiyalarini mustahkamlayotganidan dalolat beradi.

Moliyaviy ko'rsatkichlar, xususan foyda va qarzдорlik holatlari ham o'zaro bog'liq holda rivojlanib borgan. Foyda solig'idan oldingi foyda 2019-yilda 202,5 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 639,3 mlrd so'mga yetgan. Bu korxonalarining samaradorligi ortib borayotganini bildirsa-da, debitor va kreditor qarzдорlik ko'rsatkichlari ham sezilarli darajada oshgan. Debitor qarzдорlik 2019-yilda 351,8 mlrd so'm bo'lib, 2023-yilda 1760,3 mlrd so'mga yetgan. Kreditor qarzдорlik esa 2019-yildagi 728,3 mlrd so'mdan 2023-yilda 2518,6 mlrd so'mga ko'tarilgan. Bu moliyaviy majburiyatlarning oshganini ko'rsatadi va korxonalar uchun qarz boshqaruvi strategiyasini kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Umuman olganda, kichik sanoat zonalarini soni va sanoat mahsulotlari hajmi bo'yicha ijobiy o'sish dinamikasi kuzatilayotgan bo'lsa-da, investitsiyalar va qarzдорlikdagi o'zgarishlar iqtisodiy barqarorlik uchun e'tibor talab qiladi. Bu ko'rsatkichlarning tahlili kelgusida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va barqaror moliyaviy rivojlanishni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Maqolada kichik sanoat zonalarining rivojlanish holati, ularning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati atroflicha yoritilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik sanoat zonalarini iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo'lib, hududiy ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda katta rol o'ynaydi. So'nggi yillarda KSZlar sonining sezilarli darajada o'sishi kuzatilgan bo'lsa-da, ayrim ko'rsatkichlarda (investitsiyalar va korxonalar sonida) qisqarish holatlari ham kuzatilgan. Shu bilan birga, eksport va foyda ko'rsatkichlari ijobiy dinamikani namoyon qilmoqda. Moliyaviy majburiyatlarning oshishi esa kichik korxonalar uchun moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatdosh, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, mineral-xomashyo va qishloq xo'jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha yuqori texnologiyali zamonaviy ishlab chiqarishlarni barpo etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay ishlabarmonlik muhitini yaratishda, hududlarning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish hamda aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishda KSZlarning faoliyatini samarali tashkil etishda quyidagilar muhim hisoblanadi:

- **Investitsiyalarni barqarorlashtirish:** Investitsiyalar hajmidagi o'zgaruvchanlikni kamaytirish uchun kichik sanoat zonalarini imtiyozli kreditlar va qo'shimcha investitsiya dasturlarini kengaytirish lozim. - **Tarmoqlarga ixtisoslashuvni kuchaytirish:** Kompyuter va optik mahsulotlar, qog'oz va plastmassa buyumlar kabi yuqori samarali sohalarida kichik korxonalarining ulushini oshirish uchun qo'llab-quvvatlash choralari ko'rinishi kerak. - **Infratuzilmani rivojlantirish:** Qurilish va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash orqali yangi korxonalar uchun qulay sharoit yaratish zarur. - **Eksport imkoniyatlarini kengaytirish:** KSZlarning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish uchun marketing, sertifikatlash va logistika bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim. - **Moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish:** Debitor va kreditor qarzдорlikni samarali boshqarish uchun korxonalar uchun moliyaviy maslahatchilar xizmatini tashkil etish va qarzlarini boshqarish bo'yicha treninglar o'tkazish foydali bo'ladi. - **Yangi texnologiyalarni joriy qilish:** Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali mahsulotlar sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga e'tibor qaratish lozim.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 31-dekabrda "Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to'g'risida" gi nizomni tasdiqlash haqidagi 378-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi "Kichik sanoat zonalarini to'g'risida" gi nizomni tasdiqlash haqidagi 134-son qarori.
3. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining "O'zbekiston respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zona, texnopark va klasterlar faoliyati" to'g'risidagi ma'lumotlar
5. Petrović P., Arsić M., Nojković A. Increasing public investment can be an effective policy in bad times: Evidence from emerging EU economies. *Econ Model.* 2020. doi:10.1016/j.econmod.2020.02.004.
6. Ashurov Muxammadjon Murodovich "Kichik sanoat zonalarini: qulay biznes muhitini yaratish va hududni rivojlantirishda muhim omil sifatida" *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor VOLUME 1 | ISSUE 8 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5.423*
7. Shodmonqulov Kamoliddin Murodullayevich "Kichik sanoat zonalarining faoliyatini samarali boshqarish yo'nalishlari" mavzusida iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.
8. Гришин И. А. Особенности развития малого предпринимательства в российской промышленности // Российское предпринимательство. 2006. № 7 (79). С. 24-29.
9. Ушакова О. А. Возрастание роли малого промышленного бизнеса в модернизации экономики / Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Общественные науки. - 2011. № 2 (18). - С. 178-181.
10. Александрова Е. А. Управление развитием малого промышленного предпринимательства в условиях глобализации экономики: автореф. дис. канд. экон. наук : 08.00.05. - СПб., 2011. - 217
11. www.lex.uz
12. www.stat.uz
13. www.imv.uz
14. innovation.gov.uz